



TRANSPORT VA AVTOMOBILSOZLIK SOHALARIDA  
KASBIY MALAKALARNI RIVOJLANTIRISH BO‘YICHA  
TARMOQ KENGASHI

## KASBIY STANDART AVTOMOBIL HAYDOVCHISI



“Avtomobil haydovchisi” kasbiy standarti 2025-yil 18-dekabrdagi Kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha Respublika kengashi majlisining 114-son bayoni bilan tasdiqlangan “Kasbiy standart shakli” hamda Milliy malaka tizimini rivojlantirish instituti direktorining 2025-yil 19-dekabrdagi 55-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Kasbiy standartlarni ishlab chiqish va yangilash metodologiyasi”ga muvofiq, Transport sohasida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha tarmoq kengashi tomonidan ishlab chiqilgan.

# KASBIY STANDART

## Avtomobil haydovchisi

---

Reyestr raqami:

UZ-KS-2026-T1.0-0086



### I. Umumiy ma'lumotlar

1. Kasbiy standartning qo'llanilish sohasi: Ushbu Kasbiy standart "Avtomobil haydovchisi" kasbi bo'yicha ta'lim dasturlarini ishlab chiqishda, kasbiy malakalarni mustaqil baholashda, shuningdek, tashkilotlarda xodimlarni tanlash, ularning malakasini oshirish va mehnat faoliyatini baholash kabi kadrlar boshqaruvi sohasidagi keng ko'lamlı vazifalarni hal etishda qo'llaniladi.

2. Ushbu Kasbiy standartda quyidagi asosiy tushunchalar va atamalar qo'llaniladi:

bilim – kasbiy faoliyat doirasidagi vazifalarni bajarish uchun zarur bo'ladigan, o'rganilgan va o'zlashtirilgan ma'lumotlar;

DACUM – korxonaning tajribali xodimlaridan iborat ekspert guruhlarida tuzilgan guruh muhokamalarini o'tkazish usuli;

informal ta'lim – aniq maqsadga yo'naltirilgan, ammo institutsionallashtirilmagan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtirmagan), rasmiy yoki norasmiy ta'limdan ko'ra kamroq tashkillashtirilgan va tarkiblashtirilgan hamda oiladagi, ish joyidagi, yashash joyidagi va kundalik hayotdagi o'quv faoliyatini o'z ichiga olgan ta'lim shakli;

iqtisodiy faoliyat turi – savdo uchun mo'ljallangan mahsulot ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) maqsadida u yoki bu turdagi resurslarni (uskunalar, mehnat, texnologiya va boshqalar) birlashtirishga asoslangan ishlab chiqarish jarayoni;

kasb – ko'nikma va bilimlarni talab qiladigan muayyan funksiyalar va vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turi;

kasb xaritasi – kasb nomi, mehnat funksiyalari tavsifi, kasbga qo'yiladigan asosiy xususiyatlar va talablarni o'z ichiga olgan muayyan kasb to'g'risidagi tizimlashtirilgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan kasbiy standartning tarkibiy elementi;

kasbiy standartlar reyestri – bu kasbiy standartlarning nomi, qamrab olingan kasblar, uni qabul qilishga oid qaror (buyruq) rekvizitlari hamda amal qilish muddatini o'z ichiga olgan tizimlashtirilgan ro'yxat;

ko'nikma – mehnat vazifasi doirasida alohida yoki yakka harakatlarni jismoniy va aqliy jihatdan bajarish;

tizimlashtirilgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan kasbiy standartning tarkibiy elementi;

kasbiy standartlar reyestri – bu kasbiy standartlarning nomi, qamrab olingan kasblar, uni qabul qilishga oid qaror (buyruq) rekvizitlari hamda amal qilish muddatini o'z ichiga olgan tizimlashtirilgan ro'yxat;

ko'nikma – mehnat vazifasi doirasida alohida yoki yakka harakatlarni jismoniy va aqliy jihatdan bajarish;

mehnat funksiyasi — kasbiy faoliyat doirasida xodim tomonidan belgilangan natijaga erishish uchun amalga oshiriladigan mehnat vazifalari majmui;

mehnat vazifasi – mehnat funksiyasi doirasida xodimga yuklanadigan (topshiriladigan) ishning aniq turi;

mehnat harakatlari – xodimning mehnat predmeti bilan o'zaro ta'sirida muayyan mehnat natijasiga erishiladigan jarayon;

norasmiy ta'lim – ta'lim xizmatlari taqdim etilishini ta'minlovchi shaxs yoki tashkilot tomonidan institutsionallashtirilgan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtiruvchi), aniq maqsadga yo'naltirilgan va rejalashtirilgan, shaxsni butun hayoti davomida o'qitishdagi rasmiy ta'limga qo'shimcha va (yoki) uning muqobil shakli;

Avtotransport vositalari — yo'lovchilar, bagaj, yuklar tashishga hamda maxsus ishlarni bajarishga mo'ljallangan avtomobillar, shatakchi avtomobillar, tirkama va yarim tirkamalar;

Avtomobil transporti — tarkibiga yuridik va jismoniy shaxslar kiruvchi, iqtisodiyot va aholining yo'lovchilar, bagaj va yuklarni, shu jumladan pochtani (bundan keyin — yo'lovchilar, bagaj va yuklar deb yuritiladi) avtomobilda tashishga bo'lgan ehtiyojlarini ta'minlovchi ishlab chiqarish-texnologiya majmui;

Elektromobil — tashqi elektr manbaidan quvvatlanib, faqat elektr dvigateli bilan harakatlanadigan transport vositasi;

Baholash mezonlari — kasbiy malakani aniqlash jarayonida qo'llaniladigan, bilim, ko'nikma va malakalarni o'lchash uchun belgilangan talablar majmui;

Kasbiy kompetensiya — belgilangan kasbiy faoliyatni samarali bajarish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va shaxsiy fazilatlar yig'indisi;

Texnik xizmat ko'rsatish — avtotransport vositasining ishlashga yaroqliligini saqlash, nosozliklarni oldini olish yoki bartaraf etish bo'yicha muntazam amalga oshiriladigan ishlar majmui;

Transport xavfsizligi — yuk va yo'lovchi tashish jarayonida haydovchi, yo'l harakati ishtirokchilari va atrof-muhit xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan tashkiliy va texnik choralar tizimi;

Yuk tashish hujjatlari — yukni tashish, qabul qilish, topshirish va nazorat qilish jarayonini rasmiylashtiruvchi hujjatlar (yo'l varaqasi, yuk xati, hisob-faktura va boshqalar);

Yo'l harakati qoidalari — yo'l harakati ishtirokchilari uchun belgilangan majburiy me'yor va talablar majmui;

Yo'l harakati xavfsizligi — yo'l harakati ishtirokchilarining yo'l-transport hodisalari va ularning oqibatlaridan himoyalanganlik darajasini aks ettiruvchi yo'l harakati holati;

3. Kasbiy standartni ishlab chiqishga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 14-iyundagi "Ma'muriy islohotlar doirasida transport sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-94-sonli Farmoni;

O'zbekiston Respublikasining 1997-yil 25-apreldagi "Shahar yo'lovchilar transporti to'g'risida"gi 419-I-sonli Qonuni;

O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 29-avgustdagi "Avtomobil transporti to'g'risida"gi 674-I-sonli Qonuni;

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi 637-son Qonuni;

O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 19-yanvardagi "Yo'l harakati to'g'risida"gi 900-son Qonuni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 6-martdagi "Avtomobil transportini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3589-sonli qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevraldagi "Jamoat transporti tizimini isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-59-sonli qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-345-sonli qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 4-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida avtomobil transportida yo'lovchilar va bagaj tashish qoidalarini hamda avtobuslarda yo'lovchilar tashish xavfsizligini ta'minlashga doir talablarni tasdiqlash haqida"gi 482-sonli qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-fevraldagi "Avtomototransport vositalari haydovchilarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 139-sonli qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 31-maydagi "Avtomototransport vositalari va shahar elektr transporti vositalari haydovchilarini tayyorlash hamda qayta tayyorlash bo'yicha nodavlat ta'lim xizmatlarini ko'rsatish faoliyatini litsenziyalash tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 408-sonli qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 10-sentabrdagi "Davlat avtovokzallari va avtostansiyalarini boshqarish samaradorligini ta'minlashga doir tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi 712-sonli qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-iyuldagi "Avtomobil transportida yo'lovchilarni shaharda, shahar atrofida, shaharlararo, xalqaro, shuningdek yuklarni xalqaro yo'nalishlar bo'yicha tashish faoliyatini

litsenziyalash yuzasidan davlat xizmatlari ko'rsatishning ma'muriy reglamentini tasdiqlash to'g'risida"gi 636-sonli qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 6-dekabrda "Avtomobil transportida yo'lovchi tashish yo'nalishlari bo'yicha ochiq tenderlarni elektron tarzda tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 738-sonli qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-aprelda "Yo'l harakati qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi 172-sonli qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-aprelda "Yo'l patrul xizmati xodimlarining yo'l harakati qatnashchilari bilan o'zaro munosabatlari hamda maxsus moslamalardan foydalanishi tartibi to'g'risidagi nizomga o'zgartirishlar va qo'shimcha kiritish haqida"gi 173-sonli qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 18-martda "Jamoat transportini moliyalashtirishning yangi tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 116-sonli qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 9-sentabrda "Transport vositalarini boshqarish yoki transport vositalarining harakatlanishini boshqarish bilan bevosita bog'liq ishlar, kasblar va lavozimlar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 456-sonli qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 28-sentabrda "Transport sohasida kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hamda ilmiy va innovatsion faoliyat tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 504-sonli qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 22-yanvarda "Yuk va yo'lovchilarni tashishda avtotransport vositalariga yo'l varaqalarini elektron shaklda rasmiylashtirish va yuritish tizimini joriy etish to'g'risida"gi 44-sonli qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 17-iyunda "Kasbiy malakalarni rivojlantirish tizimini tashkil etish va boshqarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi VM-369-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2003-yil 9-oktabrda 1282-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan "Chipta-hisob va yo'l varaqalarini to'ldirish bo'yicha yo'riqnoma";

O'zbekiston Respublikasi Transport vazirining 2021-yil 25-sentabrda 14-son buyrug'i bilan tasdiqlangan (ro'yxat raqami 3324, 2021-yil 6-oktyabr) "Yo'lovchi avtovokzallari va yo'lovchi avtostansiyalari to'g'risidagi nizom";

"Xalqaro avtomobil yuk tashuvi shartnomasi to'g'risida"gi konvensiya 1956-yil 19-may (Convention on the Contract for the International Carriage of Goods by Road (CMR));

"TIR karnetlari qoplamasi ostida yuklarni xalqaro tashish to'g'risida"gi Bojxona konvensiyasi 1975-yil 14-noyab (Customs Convention on the International Transport of Goods under Cover of TIR Carnets (TIR Convention));

"Xalqaro avtomobil tashuvlarida ishtirok etuvchi transport vositalari ekipajlari mehnati to'g'risida"gi Yevropa bitimi 1970-yil 1-iyulda (European Agreement

concerning the Work of Crews of Vehicles Engaged in International Road Transport (AETR));

“Xavfli yuklarni avtomobil transportida xalqaro tashish to‘g‘risida”gi bitim 1957-yil 30-sentabr (European Agreement concerning the International Carriage of Dangerous Goods by Road (ADR));

“Tez buziluvchi oziq-ovqat mahsulotlarini xalqaro tashish va bunday tashishlarda qo‘llaniladigan maxsus uskunalar to‘g‘risida”gi bitim 1970-yil 1-sentabr (Agreement on the International Carriage of Perishable Foodstuffs and on the Special Equipment to be Used for such Carriage (ATP)).

4. Ushbu Kasbiy standartda quyidagi qisqartirishlar qo‘llaniladi:

MMR – Milliy malaka ramkasi;

TMR – Tarmoq malaka ramkasi;

IFUT – O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlarining umumdavlat tasniflagichi;

MMK – Mashg‘ulotlarning milliy klassifikatori;

TTMM – Tarmoq tarif-malaka ma‘lumotnomasi;

IRU – Xalqaro avtomobil transporti ittifoqi;

TIR – TIR Carnetlari asosida xalqaro bojxona tranziti tizimi;

CMR – xalqaro avtomobil yuk tashish shartnomasi va yuk xati tizimi;

e-CMR – elektron xalqaro yuk xati;

AETR – xalqaro tashuvlarda haydash va dam olish rejimi bo‘yicha kelishuv;

ADR – xavfli yuklarni avtomobil transportida xalqaro tashish kelishuvi.

## II. Kasbiy standartning pasporti

|  |  |   |                                  |
|--|--|---|----------------------------------|
| 1.   | Kasbiy standartning nomi:                                  | Avtomobil haydovchisi   |                                  |
| 2.   | Kasbiy faoliyatning asosiy maqsadi:                        | Avtotransport vositalarida yo'lovchi va yuk tashish xizmatini ko'rsatish.   |                                  |
| 3.   | IFUT bo'yicha seksiya, bo'lim, guruh, sinf va kichik sinf: | <p>H seksiya Tashish va saqlash:<br/>                     49 Quruqlikdagi va quvur transporti<br/>                     49.3 Quruqlikdagi boshqa yo'lovchi transporti<br/>                     49.31 Shahar va shahar atrofiga qatnaydigan quruqlikdagi yo'lovchi transporti<br/>                     49.31.0 Shahar va shahar atrofiga qatnaydigan quruqlikdagi yo'lovchi transporti<br/>                     49.31 Taksi faoliyati<br/>                     49.31.0 Taksi faoliyati<br/>                     49.39 Boshqa toifalarga kiritilmagan quruqlikdagi yo'lovchi tashishning boshqa turlari<br/>                     49.39.0 Boshqa toifalarga kiritilmagan quruqlikdagi yo'lovchi tashishning boshqa turlari<br/>                     49.4 Avtomobil transportida yuk tashish va chiqindilarni tashib chiqarish bo'yicha xizmatlar<br/>                     49.41 Avtomobil transportida yuk tashish<br/>                     49.41.0 Avtomobil transportida yuk tashish<br/>                     49.42. Ko'chish bo'yicha xizmat ko'rsatish<br/>                     49.42.0 Ko'chish bo'yicha xizmat ko'rsatish</p> |                                  |
| 4.   | Kasbiy standartning qisqacha mazmuni:                      | <p>Ushbu kasbiy standart avtotransport vositalari haydovchisi M – (M1, M2, M3) toifadagi kamida to'rtta g'ildiragi bo'lgan va yo'lovchilarni tashish uchun mo'ljallangan mexanik transport vositalari, N – (N1, N2, N3) toifalariga kiruvchi yuklarni tashish uchun foydalaniladigan transport vositalari, shuningdek O – (O1, O2, O3, O4,) – tirkamalar (shu jumladan yarim tirkamalar)ni boshqarish orqali yo'lovchi va yuklarni tashish xizmatini ko'rsatishini o'z ichiga oladi.<br/>                     Shuningdek shahar ichi, shahar atrofi, shaharlararo va xalqaro yo'nalishlarda yo'lovchi va yuklarni tashish xizmatini ko'rsatishini o'z ichiga oladi.</p>   |                                  |
| 5.   | Qamrab olingan kasblar ro'yxati va malaka darajasi:        | <b>Kasblar kodi va nomi:</b>  | <b>TMR dagi malaka darajasi:</b> |
| 83220001 Avtomobil haydovchisi (yengil)        |  | 2   |                                  |
| 83220007 Taksi haydovchisi                     |  | 3   |                                  |
| 83320002 Avtomobil haydovchisi (yuk tashuvchi) |  | 3   |                                  |
|  |  | 83320010 Treyler haydovchisi  | 3                                |

### III. Kasblar funksional kartasi

| Kasblar |   | Mehnat funksiyalari |  | Mehnat vazifalari |   |
|---------|---|---------------------|--|-------------------|---|
| T/r     | Kodi va nomi:   | Kodi                | Nomi   | Kodi              | Nomi  |
| 1       | 83220001-<br>Avtomobil haydovchisi (yengil)   | A1.2                | Avtomobilni harakatga tayyorlash va texnik holatini nazorat qilish                 | A1.01.2           | Avtomobilning tashqi va ichki texnik holatini (shinalar, tormoz va elektr tizimlari, yoritish moslamalari, signalizatsiya, xavfsizlik tizimlari) ko'zdan kechirish. |
|         |   |                     |  | A1.02.2           | Dvigatel moyi, sovitish suyuqligi, yoqilg'i va boshqa ekspluatatsion suyuqliklar darajasini tekshirish hamda zaruratga ko'ra to'ldirish.                            |
|         |   |                     |  | A1.03.2           | Favqulodda holat vositalari va birinchi yordam to'plamining mavjudligi va ish holatini tekshirish.  |
|         |   | A2.2                | Yo'l harakati jarayonida avtomobilni xavfsiz boshqarish                            | A2.01.2           | Yo'l harakati qoidalariga rioya qilgan holda avtomobilni belgilangan marshrut bo'yicha boshqarish.  |
|         |   |                     |  | A2.02.2           | Yo'l va ob-havo sharoitlarini hisobga olib, tezlik va oraliq masofani tanlash.  |
|         |   |                     |  | A2.03.2           | Yoqilg'i tejamkor boshqaruv va ekologik talablarni bajarish.  |
|         |   | A3.2                | Yo'lovchilar va yuklarni tashish jarayonini tashkil etish                          | A3.01.2           | Yo'lovchilarni xavfsiz joylashtirish, ularning tushib-chiqishida xavfsizlik qoidalariga amal qilish.  |
|         |   |                     |  | A3.02.2           | Yuklarni belgilangan tartibda joylashtirish, mustahkamlash va tashish davomida xavfsizligini ta'minlash.  |
|         |   | A4.2                | Hujjatlarni to'g'ri yuritish   | A4.01.2           | Tashish jarayoni bilan bog'liq hamda qonunchilikda nazarda tutilgan barcha hujjatlarni to'g'ri yuritish va rasmiylashtirish.  |
|         |   | A5.2                | Favqulodda holatlarda harakat qilish   | A5.01.2           | YTH yoki texnik nosozlik yuz berganda xavfsizlik choralarini ko'rish.   |
| A5.02.2 | Favqulodda vaziyatlarda birinchi yordam ko'rsatish va zarurat bo'lsa, tegishli xizmatlarga murojaat qilish. |                     |  |                   |   |
| 2       | 83220007-<br>Taksi haydovchisi  | B1.3                | Transport vositasini ishga tayyorlash va safaroldi tayyorgarligini amalga oshirish | B1.01.3           | Transport vositasining texnik holatini safaroldi tekshirish   |
|         |   |                     |  | B1.02.3           | Ish marshruti va smena faoliyatini rejalashtirish   |
|         |   |                     |  | B1.03.3           | Favqulodda holat vositalari va birinchi yordam to'plamining mavjudligi va ish holatini tekshirish.  |

|   |   |      |   |         |  |
|---|---|------|---|---------|--|
|   |   | B2.3 | Yo'lovchilarni xavfsiz, o'z vaqtida va belgilangan manzilga tashishni amalga oshirish                             | B2.01.3 | Buyurtmani qabul qilish va yo'lovchini transport vositasiga qabul qilish   |
|   |   |      |   | B2.02.3 | Yo'nalish bo'yicha transport vositasini xavfsiz boshqarish   |
|   |   |      |   | B2.03.3 | Safarni yakunlash va yo'lovchini xavfsiz tushirish   |
|   |   | B3.3 | Yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish, hisob-kitoblarni amalga oshirish va xizmat madaniyatini ta'minlash              | B3.01.3 | Yo'lovchi bilan hisob-kitoblarni amalga oshirish   |
|   |   |      |   | B3.02.3 | Yo'lovchi bilan xizmat madaniyati asosida muloqot qilish   |
|   |   |      |   | B3.03.3 | Maxsus holatlarda yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish   |
|   |   | B4.3 | Mehnat muhofazasi, yo'l harakati xavfsizligi, favqulodda vaziyatlarda harakat qilish va ish natijalarini yuritish | B4.01.3 | Mehnat muhofazasi va yo'l harakati xavfsizligi talablariga rioya qilish  |
|   |   |      |   | B4.02.3 | Yo'l-transport hodisasi yoki favqulodda vaziyatlarda harakat qilish  |
|   |   |      |   | B4.02.3 | Smena yakuni bo'yicha hisob yuritish va transport vositasini topshirish  |
| 3 | 83320002-<br>Avtomobil<br>haydovchisi<br>(yuk<br>tashuvchi) | D1.3 | Yuk tashish jarayonini tashkil etish va amalga oshirish   | D1.01.3 | Yukni tashishga tayyorlash, uni transport vositasiga to'g'ri joylashtirish, mahkamlash va tashishga qabul qilish.                    |
|   |   |      |   | D1.02.3 | Yukni manzilga xavfsiz va o'z vaqtida yetkazish, topshirish hamda tashish hujjatlarini rasmiylashtirish.                             |
|   |   | D2.3 | Avtomobilni boshqarish  | D2.01.3 | Yo'l harakati qoidalari, xalqaro tashish talablari va belgilangan marshrutga rioya qilgan holda transport vositasini boshqarish      |
|   |   |      |   | D2.02.3 | Harakat davomida tezlik, oraliq masofa, yuk xavfsizligi va taxograf rejimini ta'minlash  |
|   |   | D3.3 | Texnik xizmat ko'rsatish va nosozliklarni bartaraf etish  | D3.01.3 | Transport vositasining asosiy tizimlarini, nazorat vositalarini va qo'shimcha jihozlarini safar oldi hamda safardan keyin tekshirish |
|   |   |      |   | D3.02.3 | Nosozliklarni aniqlash, oddiy ta'mirlash ishlarini bajarish va murakkab nosozliklar yuzasidan tegishli choralarni ko'rish            |
|   |   | D4.3 | Yo'l harakati xavfsizligi va mehnat muhofazasini ta'minlash   | D4.01.3 | Yo'l harakati, mehnat muhofazasi, ekologik va transport xavfsizligi talablariga rioya qilish   |
|   |   |      |   | D4.02.3 | Favqulodda holatlarda to'g'ri harakat qilish, birinchi yordam ko'rsatish va tegishli xizmatlarga xabar berish                        |
|   |   |      |   | D4.03.3 | Xavfli va maxsus yuklarni tashishda ADR va boshqa maxsus xavfsizlik talablariga rioya qilish   |

|   |                              |      |  |         |  |
|---|------------------------------|------|--|---------|--|
|   |                              | D5.3 | Muloqot va hujjatlar bilan ishlash   | D5.01.3 | Dispetcherlik xizmati, logistika bo'limi, bojxona-chegara xizmati va buyurtmachilar bilan axborot almashish                            |
|   |                              |      |  | D5.02.3 | Tashish jarayoni bilan bog'liq xalqaro va milliy hujjatlarni to'g'ri yuritish hamda rasmiylashtirish                                   |
| 4 | 83320010-Treyler haydovchisi | E1.3 | Yuk tashish jarayonini rejalashtirish va transport vositasini tayyorlash           | E1.01.3 | Yukni belgilangan tartibda qabul qilish, hujjatlar asosida tekshirish va tashishga tayyorlash  |
|   |                              |      |  | E1.02.3 | Treylerni shatakka oluvchiga ulash, yuklash va mahkamlashni xalqaro xavfsizlik talablariga muvofiq nazorat qilish                      |
|   |                              |      |  | E1.03.3 | Treylarning texnik holatini safar oldi va safardan keyingi tekshiruvlar orqali kompleks baholash                                       |
|   |                              | E2.3 | Treylerni xavfsiz boshqarish   | E2.01.3 | Shatakka oluvchiga ulangan treylerni yo'l sharoiti, xalqaro marshrut va tashish talablariga muvofiq xavfsiz boshqarish                 |
|   |                              |      |  | E2.02.3 | Favqulodda holatlarda xavfsizlik choralarini ko'rish va xavfli vaziyatlarni oldini olish bo'yicha profilaktik ishlarni amalga oshirish |
|   |                              | E3.3 | Yuk tashish bilan bog'liq hujjatlarni yuritish va axborot almashinuvini ta'minlash | E3.01.3 | Dispetcher, logistika xizmati, bojxona-chegara xizmati va yakuniy mijoz bilan axborot almashinuvini ta'minlash                         |
|   |                              |      |  | E3.02.3 | Tashish jarayoni bilan bog'liq xalqaro va milliy hujjatlarni to'g'ri yuritish hamda rasmiylashtirish                                   |

#### IV. Kasblar xaritasi va mehnat funksiyalari tavsifi

|   |   |                       |
|---|---|-----------------------|
| Kasbning nomi:  | Avtomobil haydovchisi (yengil)  |                       |
| Mashg'ulot nomining kodi:   | 83220   |                       |
| TMR bo'yicha malaka darajasi:   | 2   |                       |
| Malakani baholashga qo'yiladigan talablar:                                | Tavsiya etiladi   |                       |
| Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:                          | Talab etilmaydi   |                       |
| Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar                | <p>Maxsus ruxsatlar:<br/>Ishga 18 yoshga to'lganlar qabul qilinadi.<br/>Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda majburiy dastlabki (ishga kirishda) va davriy tibbiy ko'rikdan (ko'rikdan), shuningdek, navbatdan tashqari tibbiy ko'rikdan (ko'rikdan) o'tish. Ishchi kasbi sertifikatini</p> <p>Ishga munosabat va xulq-atvor:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- rahbarlariga o'z vaqtida va to'g'ri ma'lumotlarni taqdim etish;</li> <li>- o'z bilimi, tajribasi va vakolati doirasida qarorlar qabul qilish;</li> <li>- belgilangan vazifalarni ish vaqtidan unumli va oqilona foydalangan holda bajarish;</li> <li>- mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi, atrof-muhitni muhofaza qilish, sanitariya-gigiyena, yong'in va elektr xavfsizligi qoidalariga rioya qilish;</li> <li>- o'z tajribasini hamkasblari bilan bo'lishish;</li> <li>- jamoa bilan inoq ishlash;</li> <li>- o'z vazifalariga bog'liq yangilik va innovatsiyalarni kuzatib borish, o'zlashtirish va joriy qilish.</li> </ul> |                       |
| Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:                                     | umumiy o'rta ta'lim   |                       |
| Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:                            | tayanch o'rta ta'lim + ish joyida qisqa muddatli o'qitish (instruktaj) yoki qisqa muddatli kurslar yoki amaliy tajriba  |                       |
| Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:                                  | Mavjud emas   |                       |
| Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:                                   | 1–3 razryadli Avtomobil haydovchisi (yengil)  |                       |
| Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:  | <b>TMR bo'yicha malaka darajasi:</b>  | <b>Kasbning nomi:</b> |
|   | 3   | Taksi haydovchisi     |
| <b>Mehnat funksiyalarining tavsifi</b>                                    |   |                       |
| <b>Kodi va nomi</b>   | <b>Mehnat vazifalari</b>  |                       |
| A1.2 – Avtomobilni harakatga tayyorlash va texnik holatini nazorat qilish | <b>O'qitish natijalari</b>  |                       |
|   | <b>Mehnat harakatlari:</b>  |                       |
|   | 1. Shinalar, yoritish va signalizatsiya moslamalarini vizual tekshirish   |                       |
|   | 2. Tormoz, elektr va boshqaruv tizimlari holatini baholash  |                       |
|   | 3. Salon va xavfsizlik elementlarining sozligini tekshirish   |                       |

|   |   |   |
|---|---|---|
|   | A1.01.2 –<br>Avtomobilning tashqi va ichki texnik holatini (shinalar, tormoz va elektr tizimlari, yoritish moslamalari, signalizatsiya, xavfsizlik tizimlari) ko'zdan kechirish | <b>Ko'nikmalar:</b>   |
|   |   | Texnik nosozliklarni tashqi belgilar orqali aniqlash                  |
|   |   | Avtomobil xavfsizligiga ta'sir etuvchi holatlarni baholash            |
|   |   | Ko'zdan kechirish jarayonini ketma-ketlikda bajarish                  |
|   |   | <b>Bilimlar:</b>  |
|   |   | Yengil avtomobilning asosiy texnik qismlari                           |
|   |   | Avtomobil elektr jihozlari  |
|   | Yo'l harakati xavfsizligi talablari   |   |
|   | Avtomobil ekspluatatsiyasi qoidalari  |   |
|   | A1.02.2 – Dvigatel moyi, sovitish suyuqligi, yoqilg'i va boshqa ekspluatatsion suyuqliklar darajasini tekshirish hamda zaruratga ko'ra to'ldirish                               | <b>Mehnat harakatlari:</b>  |
|   |   | 1. Dvigatel moyi va sovitish suyuqligi darajasini o'lchash            |
|   |   | 2. Tormoz va oyna yuvish suyuqliklarini tekshirish                    |
|   |   | 3. Zarurat bo'lganda suyuqliklarni belgilangan me'yorlarda to'ldirish |
|   |   | <b>Ko'nikmalar:</b>   |
|   |   | Ekspluatatsion suyuqliklar darajasini aniqlash                        |
|   |   | Oddiy texnik xizmat ishlarini bajarish                                |
|   |   | Asbob-uskunalardan xavfsiz foydalanish                                |
|   |   | <b>Bilimlar:</b>  |
|   |   | Avtomobil suyuqliklarining vazifalari                                 |
|   | Texnik xizmat ko'rsatish me'yorlari   |   |
|   | Dvigatel va yordamchi tizimlarning ishlash prinsipi   |   |
| A1.03.2 – Favqulodda holat vositalari va birinchi yordam to'plamining mavjudligi va ish holatini tekshirish | <b>Mehnat harakatlari:</b>  |   |
|   | 1. Favqulodda holat vositalari va birinchi yordam to'plamining to'liqligi va yaroqlilik muddatini ko'zdan kechirish   |   |
|   | 2. Favqulodda holat vositalarining joylashuvi va foydalanishga tayyorligi holatini aniqlash   |   |
|   | <b>Ko'nikmalar:</b>   |   |
|   | Favqulodda holat vositalarini holatini va yaroqlilik holatini baholash  |   |
|   | Birinchi yordam to'plamidan to'g'ri foydalanish   |   |
|   | Favqulodda vaziyatlarda tezkor va to'g'ri harakat qilish  |   |
|   | <b>Bilimlar:</b>  |   |
|   | Favqulodda holat vositalarining turlari va vazifalari   |   |
|   | Birinchi yordam ko'rsatishning asosiy qoidalari   |   |
| Favqulodda vaziyatlarda harakatlanish qoidalari   |   |   |
| <b>Mas'uliyat va mustaqillik:</b>   | 1. Haydovchi avtomobilning harakatga chiqishdan oldingi texnik holati uchun shaxsan mas'uliyat  |   |
|   | 2. Mehnat faoliyatini belgilangan yo'riqnomalar asosida amalga oshirishda mustaqillik   |   |
|   | <b>Mehnat harakatlari:</b>  |   |
|   | 1. Belgilangan yo'nalish bo'yicha harakatlanish   |   |

|  |  |  |
|--|--|--|
| A2.2 –<br>Yo‘l harakati<br>jarayonida<br>avtomobilni xavfsiz<br>boshqarish     | A2.01.2 – Yo‘l<br>harakati qoidalariga<br>rioya qilgan holda<br>avtomobilni<br>belgilangan marshrut<br>bo‘yicha boshqarish                             | 2. Yo‘l belgilariga va svetofor signallariga amal qilish     |
|  |  | 3. Transport oqimiga moslashib harakatlanish                 |
|  |  | <b>Ko‘nikmalar:</b>  |
|  |  | Avtomobilni barqaror boshqarish                              |
|  |  | Yo‘l holatini tez baholash                                   |
|  |  | Qarorlarni tez va to‘g‘ri qabul qilish                       |
|  |  | <b>Bilimlar:</b>   |
|  | Yo‘l harakati qoidalari  |  |
|  | Transport oqimi xususiyatlari  |  |
|  | A2.02.2 – Yo‘l va ob-<br>havo sharoitlarini<br>hisobga olib, tezlik va<br>oraliq masofani<br>tanlash   | <b>Mehnat harakatlari:</b>                                   |
|  |  | 1. Yo‘l qoplamasi va ob-havo holatini baholash               |
|  |  | 2. Oldingi transport vositasi bilan xavfsiz masofani saqlash |
|  |  | 3. Harakat tezligini vaziyatga moslashtirish                 |
|  |  | <b>Ko‘nikmalar:</b>  |
|  |  | Xavfli vaziyatlarni oldindan sezish                          |
| Tormozlash va manevr qilish  |  |  |
| Diqqatni uzoq vaqt saqlash   |  |  |
| <b>Bilimlar:</b>   |  |  |
| Xavfsiz harakat tamoyillari  |  |  |
| Tormoz masofasi tushunchasi  |  |  |
| Ob-havo sharoitlarining harakatga ta‘siri                                      |  |  |
| A2.03.2 – Yoqilg‘i<br>tejamkor boshqaruv<br>va ekologik talablarni<br>bajarish | <b>Mehnat harakatlari:</b>   |  |
|  | 1. Avtomobilni barqaror boshqarish (keskin tezlanish va tormozlashdan qochish)   |  |
|  | 2. Keraksiz energiya sarfi va zararli chiqindilarni kamaytirish  |  |
|  | <b>Ko‘nikmalar:</b>  |  |
|  | Yoqilg‘i sarfiga ta‘sir qiluvchi omillarni hisobga olish   |  |
|  | Avtomobilni to‘g‘ri ekspluatatsiya qilish  |  |
|  | <b>Bilimlar:</b>   |  |
| Yoqilg‘i tejamkor boshqaruv qoidalari  |  |  |
| Ekologik xavfsizlik talablari  |  |  |
| <b>Mas‘uliyat va<br/>mustaqillik:</b>  | 1. Haydovchi yo‘l harakati jarayonida yo‘lovchilar, boshqa yo‘l harakati ishtirokchilari va transport vositasining xavfsizligi uchun to‘liq mas‘uliyat |  |
|  | 2. Qarorlarni mustaqil ravishda, Yo‘l harakati qoidalari asosida qabul qilish bo‘yicha mas‘uliyat  |  |
| A3.2 –<br>Yo‘lovchilar va<br>yuklarni tashish<br>jarayonini tashkil<br>etish   | A3.01.2 –<br>Yo‘lovchilarni xavfsiz<br>joylashtirish, ularning<br>tushib-chiqishida<br>xavfsizlik qoidalariga<br>amal qilish                           | <b>Mehnat harakatlari:</b>                                   |
|  |  | 1. Yo‘lovchilarning xavfsiz joylashishini ta‘minlash         |
|  |  | 2. Tushish-chiqish jarayonini nazorat qilish                 |
|  |  | 3. Harakat davomida xavfsizlik qoidalariga rioya etish       |
|  |  | <b>Ko‘nikmalar:</b>  |
|  |  | Yo‘lovchilar bilan to‘g‘ri muloqot qilish                    |
|  |  | Xavfsiz tashish usullarini qo‘llash                          |
| Stressli vaziyatlarda o‘zini boshqarish  |  |  |

|  |  |  |
|--|--|--|
|  |  | <b>Bilimlar:</b>   |
|  |  | Yo'lovchi tashish qoidalari  |
|  |  | Xizmat etikasi asoslari  |
|  | A3.02.2 –<br>Yuklarni belgilangan tartibda joylashtirish, mustahkamlash va tashish davomida saqlanishini ta'minlash                      | <b>Mehnat harakatlari:</b>   |
|  |  | 1. Yuklarni avtomobilda to'g'ri joylashtirish  |
|  |  | 2. Yuklarni mahkamlash vositalaridan foydalanish   |
|  |  | 3. Tashish davomida yuk holatini nazorat qilish  |
|  |  | <b>Ko'nikmalar:</b>  |
|  |  | Yuk muvozanatini baholash  |
|  |  | Xavfsiz mahkamlash usullarini qo'llash   |
|  |  | Avtomobil sig'imidan oqilona foydalanish   |
|  |  | <b>Bilimlar:</b>   |
| Yuk tashish qoidalari                          |  |  |
| Og'irlik va muvozanat tushunchalari            |  |  |
| Avtomobil yuk ko'tarish me'yorlari             |  |  |
| <b>Mas'uliyat va mustaqillik:</b>              | 1. Haydovchi tashish jarayonida yo'lovchilar va yuklarning xavfsizligi hamda saqlanishi uchun mas'uliyat                                 |  |
|  | 2. Faoliyatni mustaqil, belgilangan xizmat qoidalariga muvofiq bajarish bo'yicha mas'uliyat  |  |
| A4.2 –<br>Hujjatlarni to'g'ri yuritish         | A4.01.2 –<br>Tashish jarayoni bilan bog'liq hamda qonunchilikda nazarda tutilgan barcha hujjatlarni to'g'ri yuritish va rasmiylashtirish | <b>Mehnat harakatlari:</b>   |
|  |  | 1. Hujjatlarning to'g'riligi va to'liqligini tekshirish  |
|  |  | 2. Hujjatlarni belgilangan tartibda yuritish va rasmiylashtirish   |
|  |  | <b>Ko'nikmalar:</b>  |
|  |  | Hujjatlarni to'g'ri va xatosiz rasmiylashtirish  |
|  | <b>Bilimlar:</b>   |  |
|  | Amaldagi qonunchilik talablari   |  |
|  | Hujjatlarni rasmiylashtirish qoidalari   |  |
|  | <b>Mas'uliyat va mustaqillik:</b>  | 1. Haydovchi tashish jarayonida yo'lovchilar va yuklarning xavfsizligi hamda hujjatlarni to'g'ri yuritish va rasmiylashtirish uchun mas'uliyat |
|  |  | 2. Faoliyatni mustaqil, belgilangan xizmat qoidalariga muvofiq bajarish bo'yicha mas'uliyat  |
| A5.2 –<br>Favqulodda holatlarda harakat qilish | A5.01.2 –<br>YTH yoki texnik nosozlik yuz berganda xavfsizlik choralarini ko'rish  | <b>Mehnat harakatlari:</b>   |
|  |  | 1. Avtomobilni xavfsiz joyda to'xtatish va avariya chiroqlarini yoqish   |
|  |  | 2. Ogohlantiruvchi belgini o'rnatish   |
|  |  | <b>Ko'nikmalar:</b>  |
|  |  | Favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakat qilish   |
|  |  | Xavfsizlik vositalaridan foydalanish   |
|  | <b>Bilimlar:</b>   |  |
|  | YHQga asosan harakatlanish qoidalari   |  |
|  | <b>Mehnat harakatlari:</b>   | 1. Jabrlanganlarning holatini baholash va birinchi yordam ko'rsatish   |
|  |  | 2. Zarurat bo'lsa tez yordam va boshqa xizmatlarga xabar berish  |

|  |  |  |
|--|--|--|
|  | A5.02.2 – Favqulodda vaziyatlarda birinchi yordam ko'rsatish va zarurat bo'lsa, tegishli xizmatlarga murojaat qilish | <b>Ko'nikmalar:</b>  |
|  |  | Birinchi yordamni amalda qo'llash  |
|  |  | Favqulodda vaziyatda tez va to'g'ri qaror qabul qilish   |
|  |  | <b>Bilimlar:</b>   |
|  | <b>Mas'uliyat va mustaqillik:</b>  | Birinchi yordam asosiy qoidalari   |
|  |  | 1. Haydovchi favqulodda vaziyatlarda jabrlanganlarga birinchi yordam ko'rsatish uchun mas'uliyat<br>2. Vaziyatni mustaqil baholab, tezkor xizmatlarga o'z vaqtida murojaat qiladi va xavfsizlik choralarini mustaqil amalga oshirishda mas'uliyat  |
| <b>Texnik va/yoki texnologik talab</b> |  | <p>Yengil avtomobil amaldagi texnik reglamentlar va yo'l harakati xavfsizligi talablariga to'liq javob berishi hamda soz texnik holatda bo'lishi lozim.</p> <p>Avtomobil ishlab chiqaruvchi tomonidan belgilangan ekspluatatsiya va texnik xizmat ko'rsatish yo'riqnomalariga muvofiq boshqarilishi talab etiladi.</p> <p>Harakatga chiqishdan oldin avtomobilning tormoz, rul boshqaruvi, elektr jihozlari(yoritish) va signalizatsiya tizimlari majburiy tartibda tekshirilishi lozim.</p> <p>Yo'l, ob-havo va transport oqimi sharoitlarini hisobga olgan holda xavfsiz boshqaruv texnologiyalaridan foydalanilishi talab etiladi.</p> <p>Avtomobilda mavjud xavfsizlik va yordamchi texnik tizimlardan belgilangan qoidalarga muvofiq foydalanilishi shart.</p> <p>Texnik nosozlik, YTH yoki favqulodda holatlar yuzaga kelganda belgilangan xavfsizlik va harakat algoritmlariga muvofiq choralar ko'rilishi lozim.</p> |

|   |   |   |
|---|---|---|
| Kasbning nomi:  | Taksi haydovchisi   |   |
| Mashg'ulot nomining kodi:   | 83220   |   |
| TMR bo'yicha malaka darajasi:   | 3   |   |
| Malakani baholashga qo'yiladigan talablar:  | Tavsiya etiladi   |   |
| Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:  | Talab etilmaydi, ammo kamida 3 oy amaliy stajirovkadan o'tgan bo'lishi zarur  |   |
| Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar                                | <p>Maxsus ruxsatlar:<br/>Ishga 18 yoshga to'lganlar qabul qilinadi.<br/>Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda majburiy dastlabki (ishga kirishda) va davriy tibbiy ko'rikdan (ko'rikdan), shuningdek, navbatdan tashqari tibbiy ko'rikdan (ko'rikdan) o'tish. Ishchi kasbi sertifikati</p> <p>Ishga munosabat va xulq-atvor:<br/>-rahbarlariga o'z vaqtida va to'g'ri ma'lumotlarni taqdim etish;<br/>-o'z bilimi, tajribasi va vakolati doirasida qarorlar qabul qilish;<br/>-belgilangan vazifalarni ish vaqtidan unumli va oqilona foydalangan holda bajarish;<br/>-mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi, atrof-muhitni muhofaza qilish, sanitariya-gigiyena, yong'in va elektr xavfsizligi qoidalariga rioya qilish;<br/>-o'z tajribasini hamkasblari bilan bo'lishish;<br/>-jamoalar bilan inoq ishlash;<br/>-o'z vazifalariga bog'liq yangilik va innovatsiyalarni kuzatib borish, o'zlashtirish va joriy qilish.</p> |   |
| Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:   | 1) boshlang'ich professional ta'lim<br>2) o'rta maxsus ta'lim   |   |
| Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:  | umumiy o'rta ta'lim+norasmiy (informal) ta'lim yoki amaliy tajriba  |   |
| Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:  | Mavjud emas   |   |
| Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:   | 1–6 razryadli Taksi haydovchisi   |   |
| Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:  | <b>TMR bo'yicha malaka darajasi:</b>  | <b>Kasbning nomi:</b>   |
|   | 2   | Avtomobil haydovchisi (yengil)  |
| <b>Mehnat funksiyalarining tavsifi</b>  |   |   |
| <b>Kodi va nomi</b>   | <b>Mehnat vazifalari</b>  |   |
| B1.3 – Transport vositasini ishga tayyorlash va safaroldi tayyorgarligini amalga oshirish | B1.01.3 – Transport vositasining texnik holatini safaroldi tekshirish   | <b>O'qitish natijalari</b>  |
|   |   | <b>Mehnat harakatlari:</b>  |
|   |   | 1. Transport vositasining tashqi ko'rinishi, kuzovi va oynalarini ko'zdan kechirish               |
|   |   | 2. Shinalar bosimi, protektor holati va g'ildiraklarning mahkamligini tekshirish                  |
|   |   | 3. Tormoz tizimi, rul boshqaruvi, signal, faralar va chiroqlar ish faoliyatini sinovdan o'tkazish |

|  |   |  |
|--|---|--|
|  |   | <p>4. Dvigatel moyi, sovitish suyuqligi, yoqilg'i va boshqa texnik suyuqliklar darajasini nazorat qilish</p> <p><b>Ko'nikmalar:</b></p> <p>Transport vositasining asosiy agregatlari holatini tezkor baholash</p> <p>Oddiy texnik nosozlik belgilarini aniqlash</p> <p>Nazorat-o'lchov ko'rsatkichlarini to'g'ri o'qish</p> <p>Texnik holat bo'yicha xulosani amaliy baholash asosida chiqarish</p> <p>Nosozlik aniqlanganda belgilangan tartibda xabar berish</p> <p><b>Bilimlar:</b></p> <p>Yengil avtomobilning asosiy uzal va tizimlari vazifasi</p> <p>Safaroldi texnik ko'rikka qo'yiladigan talablar</p> <p>Harakat xavfsizligiga bevosita ta'sir qiluvchi nosozliklar ro'yxati</p> <p>Shinalar, tormozlar, yoritish vositalari bo'yicha me'yoriy talablar</p> <p>Transport vositasini ekspluatatsiya qilishning asosiy qoidalari</p>   |
|  | <p>B1.02.3 – Salon, ish joyi va xizmat ko'rsatish vositalarini tayyorlash</p> | <p><b>Mehnat harakatlari:</b></p> <p>1. Haydovchi o'rindig'i, oynalar va rul holatini qulay va xavfsiz tarzda moslash</p> <p>2. Salon tozaligi, o'rindiqlar holati va xavfsizlik kamarlarini tekshirish</p> <p>3. Birinchi yordam qutichasi, o't o'chirgich va avariya belgisi mavjudligini nazorat qilish</p> <p>4. Terminal, mobil aloqa vositasi, navigator va zarur ilovalar ish holatini tekshirish</p> <p>5. Yo'lovchi tashish uchun zarur hujjatlar va rekvizitlarni tayyorlash</p> <p><b>Ko'nikmalar:</b></p> <p>Ish joyini ergonomik va xavfsiz tashkil etish</p> <p>Salonni xizmat ko'rsatish talablariga mos holatga keltirish</p> <p>Raqamli qurilmalar va ilovalarni ishga tayyorlash</p> <p>Zarur jihozlar to'liqligini nazorat qilish</p> <p>Hujjatlar va xizmat atributlarini tartibli yuritish</p> <p><b>Bilimlar:</b></p> <p>Taksi saloniga qo'yiladigan sanitariya va gigiyena talablari</p> <p>Yo'lovchi tashishda majburiy jihozlar ro'yxati</p> <p>To'lov terminali, navigator va mobil ilovalardan foydalanish tartibi</p> <p>Haydovchi ish joyini moslashtirish talablari</p> <p>Tashish faoliyatida foydalaniladigan asosiy hujjatlar turlari</p> |

|   |   |   |
|---|---|---|
|   | <p>B1.03.3 – Ish marshruti va smena faoliyatini rejalashtirish</p>                        | <p><b>Mehnat harakatlari:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Buyurtmalar qabul qilinadigan hududlar va xizmat ko'rsatish zonasini aniqlash</li> <li>2. Yo'l holati, tirbandlik, ta'mirlash uchastkalari va ob-havo omillarini hisobga olish</li> <li>3. Eng maqbul boshlang'ich yo'nalish va kutish nuqtalarini tanlash</li> <li>4. Yoqilg'i sarfi va smena davomiyligini hisobga olib ish rejimini belgilash</li> <li>5. Raqamli platforma yoki dispetcherlik tizimi bilan ulanishni ta'minlash</li> </ol> <p><b>Ko'nikmalar:</b></p> <p>Yo'nalishlarni tezkor tahlil qilish</p> <p>Raqamli xaritalardan amaliy foydalanish</p> <p>Vaqt va resurslarni rejalashtirish</p> <p>Tirbandlik va tashqi omillarga moslashgan qaror qabul qilish</p> <p>Buyurtmalar oqimini boshqarishga tayyor turish</p> <p><b>Bilimlar:</b></p> <p>Xizmat ko'rsatiladigan hududning asosiy ko'chalari va manzillari</p> <p>Yo'l tirbandligi va transport oqimiga ta'sir qiluvchi omillar</p> <p>Navigatsiya tizimlari ishlash prinsiplari</p> <p>Smena rejimi va mehnat vaqtidan foydalanish qoidalari</p> <p>Yoqilg'i tejamkorligi va marshrut tanlash tamoyillari</p> |
|   | <p><b>Mas'uliyat va mustaqillik:</b></p>  | <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Transport vositasining safarga yaroqliligini baholash uchun shaxsan javobgarlik</li> <li>2. Ish boshlanishidan oldin xavfsizlikka ta'sir etuvchi holatlarni aniqlashda mustaqillik</li> <li>3. Aniqlangan kamchiliklar bo'yicha o'z vakolati doirasida qaror qabul qilish</li> <li>4. Zarur hollarda mas'ul shaxslarga o'z vaqtida axborot berish bo'yicha mas'uliyat</li> <li>5. Xizmat ko'rsatish jarayonining xavfsiz va tartibli boshlanishini ta'minlash</li> </ol>  |
| <p>B2.3 – Yo'lovchilarni xavfsiz, o'z vaqtida va belgilangan manzilga tashishni amalga oshirish</p> | <p>B2.01.3 – Buyurtmani qabul qilish va yo'lovchini transport vositasiga qabul qilish</p> | <p><b>Mehnat harakatlari:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Buyurtma ma'lumotlarini qabul qiladi va manzilni aniqlashtirish</li> <li>2. Yo'lovchini belgilangan nuqtada kutib oladi va o'zini tanishtirish</li> <li>3. Yo'lovchining safar manzili, oraliq bekatlari va maxsus talablarini aniqlash</li> <li>4. Bagajni joylashtirishda amaliy yordam ko'rsatish</li> </ol>   |

|  |  |  |
|--|--|--|
|  |  | <p>5. Yo'lovchini xavfsiz o'tirishini va kamar taqishini nazorat qilish</p> <p><b>Ko'nikmalar:</b></p> <p>Buyurtma ma'lumotlarini tez va aniq qabul qilish</p> <p>Yo'lovchi bilan muloyim va aniq muloqot olib borish</p> <p>Manzil va marshrutni aniqlashtirish</p> <p>Bagajni xavfsiz joylashtirish</p> <p>Xizmatni xushmuomala tarzda boshlash</p> <p><b>Bilimlar:</b></p> <p>Buyurtma qabul qilish tartibi va xizmat algoritmi</p> <p>Yo'lovchini kutib olish etikasi</p> <p>Bagajni joylashtirishning xavfsizlik talablari</p> <p>Yo'lovchi tashishda xavfsizlik kamaridan foydalanish qoidalari</p> <p>Yo'lovchi tashish xizmatida muloqot me'yorlari</p>  |
|  | B2.02.3 – Yo'nalish bo'yicha transport vositasini xavfsiz boshqarish | <p><b>Mehnat harakatlari:</b></p> <p>1. Yo'l harakati qoidalariga to'liq amal qilgan holda transport vositasini boshqarish</p> <p>2. Tezlikni yo'l sharoiti, ob-havo va qatnov zichligiga moslashtirish</p> <p>3. Yo'nalishni navigator va real vaziyatga muvofiq tezkor tuzatish</p> <p>4. Keskin tormozlash, xavfli quvib o'tish va noqulay manevrlardan qochish</p> <p>5. Yo'lovchi xavfsizligi va qulayligini saqlagan holda belgilangan manzilga harakatni davom ettirish</p> <p><b>Ko'nikmalar:</b></p> <p>Transport vositasini barqaror va xavfsiz boshqarish</p> <p>Yo'l vaziyatini oldindan baholash</p> <p>Himoyaviy haydash usullarini qo'llash</p> <p>Xavf tug'ilganda tezkor va to'g'ri reaksiya ko'rsatish</p> <p>Qulay va silliq haydash uslubini ta'minlash</p> <p><b>Bilimlar:</b></p> <p>Yo'l harakati qoidalari</p> <p>Shaharda yo'lovchi tashishning amaliy talablari</p> <p>Himoyaviy haydash tamoyillari</p> <p>Turli ob-havo sharoitida boshqaruv xususiyatlari</p> <p>Yo'lovchi xavfsizligi va qulayligiga ta'sir qiluvchi omillar</p> |
|  | B2.03.3 – Safarni yakunlash va yo'lovchini xavfsiz tushirish         | <p><b>Mehnat harakatlari:</b></p> <p>1. Manzilga yetib kelgach, transport vositasini xavfsiz joyda to'xtatish</p> <p>2. Yo'lovchini yo'lning xavfsiz tomonidan tushirish choralari ko'rish</p> <p>3. Bagaj va shaxsiy buyumlarni to'liq qaytarish</p> <p>4. Safar yakunlanganini ilova, terminal yoki boshqa tizimda belgilash</p>   |

|  |   |   |
|--|---|---|
|  |   | <p>5. Keyingi buyurtmaga o'tishdan oldin salonni qisqa ko'zdan kechirish</p> <p><b>Ko'nikmalar:</b></p> <p>Xavfsiz to'xtash joyini tanlash</p> <p>Yo'lovchini xavfsiz tushirishni tashkil etish</p> <p>Buyumlarni tekshirish va qaytarish</p> <p>Safarni tizimda to'g'ri yakunlash</p> <p>Keyingi xizmatga tezkor tayyorgarlik ko'rish</p> <p><b>Bilimlar:</b></p> <p>To'xtash va tushirish qoidalari</p> <p>Yo'lovchini tushirishda xavfsizlik talablari</p> <p>Safarni rasmiy yakunlash tartibi</p> <p>Yo'qolgan buyumlar bilan ishlashning boshlang'ich qoidalari</p> <p>Xizmat davomiyligini boshqarish asoslari</p>  |
|  | <p><b>Mas'uliyat va mustaqillik:</b></p>                              | <p>1. Yo'lovchini belgilangan manzilga xavfsiz va o'z vaqtida yetkazish uchun javobgarlik</p> <p>2. Yo'l vaziyatiga qarab mustaqil ravishda marshrut va haydash uslubini moslashtirish</p> <p>3. Yo'lovchi xavfsizligiga tahdid tug'diruvchi harakatlarga yo'l qo'ymaylikda mas'uliyat</p> <p>4. Xizmat sifati va tashish intizomini ta'minlash</p> <p>5. Tashish jarayonida qoidalarga rioya etilishini shaxsan nazorat qilish</p>   |
